

Adabiyot darslarda badiiy asar mazmuni bilan tanishtirishda tayyorgarlik bosqichi

Malika Jazilova Bekmirzayevna

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
o'qituvchisi
malikazazilova@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot darslarda badiiy asar mazmuni bilan tanishtirishda tayyorgarlik bosqichlari orqali, o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish va lug'at zaxirasi boy o'quvchining tafakkur doirasi keng, nutqi ravon, o'zaro munosabatlarda kirishuvchan bo'lishiga undash alohida e'tiborga olingan. O'quvchilarning nutqini o'stiradigan vositalardan biri bu – matn ustida ishlashdir. Buning uchun alohida tayyorgarlik ishlari olib boriladi.

Kalit so'zlar: Matn, badiiy matn, epizod, adabiy sayohat, sintez davri, analitik bosqich, nutq o'stirish, hissiy idrok, sarlavha, og'zaki bayon.

Badiiy asar matni ustida ishlashda va uning bosqichlarini belgilashda dastlab uning san'at asari sifatidagi o'ziga xosliklari va o'quvchilarning adabiy tayyorgarlik darajasi hisobga olinadi. Badiiy asarda barcha qismlar bir-biriga chambarchas bog'liq. Masalan, sujet rivoji asosida qahramonlarning yangi qirralari kashf etila boradi. Bu esa, o'z navbatida, asarni yaxlit holda o'qishni va idrok etishni taqozo etadi.

Tayyorgarlik bosqichi ijodkorlar haqida ma'lumot berish, o'quvchilarni asarda tasvirlangan voqea-hodisalarni idrok etish, asar pafosini his qilish, notanish va ko'p ma'noli so'zlarni, murakkab holdagi obrazli ifodalarni izohlash tarzidagi masalalar qamrab olinadi. Matn mavzusi yoki mazmuniga qarab faoliyat turlarini tashkil etish mumkin bo'ladi. Masalan, agar tabiat haqidagi she'rlar bo'lsa, aynan qaysi xususiyati bo'rtib tursa o'sha jihatiga doir tadbirlar tshkil qilish, sayohatlar uyushtirish maqsadga muvofiq. Matn bilan dastlabki tanishuvdan so'ng quyidagi mazmundagi savollar bilan murojaat etish o'quvchilarni chuqur fikrlashga va faollik ko'rsatishlariga zamin yaratdi:

- 1. Asardagi qaysi epizodni qiziqarli deb bildingiz?*
- 2. Qaysi qahramonlarning xatti-harakatlarini oqlaysiz yoki qoralaysiz? Nima uchun? Fikringizni asoslang.*

3. *Hayotda asardagi qahramonlarga o'xshagan kishilarni uchratganmisiz?*

Tayyorgarlik ishlarining vazifalari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

1. O'quvchilarning asarda tasvirlangan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli ravishda tushunishga qaratilgan yangi ma'lumotlarni berish, badiiy asarda tasvirlangan lavhalar bilan o'zlari kuzatganlarini bog'lay olishga zarur shart-sharoitlar yaratish.

2. Ijodkorning hayot yo'li va ijodiga qiziqish uyg'otish. Xususan, 5-sinfda O'tkir Hoshimovning hayoti va ijodi, "Dunyoning ishlari" asarining yaratilish tarixi haqida ma'lumotlarni yetkazishda o'quvchini muallifga yaqinlashtiradigan, shaxsiyatini anglashga yo'naltiradigan hamda asarining yaratilishiga turtki beradigan ma'lumotlarni keltirishga alohida ahamiyat qaratish muhim sanaladi.

3. Asarni hissiy idrok etishga tayyorlash. Buni asarning inson ruhiyati bilan bog'liq xosliklarini anglashga o'rgatish taqozo qilinadi.

4. Izohlash talab etadigan so'zlarning ma'nolarini tushuntirish. Jumladan, 6-sinfda Muqimiyning "Tanobchilar" satirasini o'rganishda, tabiiyki, ayrim so'zlar izoh talab etadi. Bunday holda o'qituvchi darsga tayyorgarlik chog'ida ularni ajratib olishi, anglatadigan ma'nolarini tushunishlari uchun izohli lug'atlar bilan ishlashni yo'lga qo'yishi zarur. Masalan:

Maxdumi a'zam – mashhur avliyo Abdulqodir G'iloniyning unvoni.

Shohlig' mazor – Shohi Zinda maqbarasidagi azizlar ko'zda tutilmoqda

Erhubbi – islomgacha bo'lgan davrdagi avliyo

Nurato – hozirgi Nurotada o'tgan avliyo

Bibi Ubayda – avliyo ayollardan

Xizr – Qur'onda nomi tilga olingan payg'ambar

Chimlig' azizlar – Turkiston tomonlarda o'tgan avliyolar

Dodar – ini, uka

Mardumi sahroyi – qishloq odami¹.

Yuqorida keltirilgan so'zlar ustida ishlashda ularning qaysi tilga xosligi, tarixiy shaxslarning kim bo'lib o'tganligi, asar sujтеiga qay darajada aloqasi borligi, ma'nodoshlarini topish kabi vazifalar berilishi maqsadga muvofiq. Bu esa muallifning maqsadi va asar mazmunini o'zlashtirishga katta yordam beradi.

Tayyorgarlik ishlarining ta'limiy shakllari turli xil bo'lib, ular asar mazmuni va sharoitiga qarab tanlanadi. Bu davrda nimalar haqida so'zlash va tahlil qilish

¹. S.Ahmedov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev 6-sinf. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri /.. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. – 102-b.

belgilangan bo'lsa, o'quvchilarning o'zlaridan nimalarni bilib olganliklari so'rab aniqlanadi. Masalan, 7-sinfda Rasul Hamzatovning hayoti va ijodi, "Ona tilim" she'ri o'rganilayotganda o'quvchilarning ona tiliga bo'lgan tuyg'ulari, munosabati quyidagicha savollar orqali bilib olinadi:

1. Shoirning she'riyatiga xos xususiyatlarni aytib bering.
2. Bu she'rlarning mashhurligi sabablarini izohlang.
3. Shoirning avar xalqi milliy ruhiyati yorqin aks etgan she'rlarining boshqa xalqlar she'rxonlariga ma'qul kelish sababi haqida o'ylab ko'ring².

Tayyorgarlik shakllaridan yana biri bu *adabiy sayohat*lardir. Bu faoliyat turi imkoniyatlardan tabiat tasviriga bag'ishlangan yoki turli zavod-fabrikalar, shahar-qishloqlar, kasbga oid mavzular va tarixiy asarlar o'rganilganda foydalanish maqsadga muvofiq. Adabiy ekskursiyalar matnda aks etgan voqea-hodisalarni aniqroq tasavvur etishga, atrofdagi voqeliklarni kuzatishga yordam beradi. Kattalarning mehnat faoliyati, tarixiy voqealarni idrok etishga xizmat qiladi.

Filmdan lavha namoyish qilish. Tarixiy materiallarni, asar muallifi hayotini o'rganishdan oldin bunday shakldagi yondashuvlar qo'llanilsa, asarning chuqurroq idrok qilinishi ortadi. Masalan, umumta'lim maktablari 7-sinfida Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani o'tilayotganda filmdan parcha namoyish qilinsa, kinofilmdan olingan kadrlar o'quvchilarning tasavvur olamini kengaytirishga, tushunchalar mazmunini aniqlashga, ongli o'qish va hissiy idrok etish ko'nikmasini shakllantirish imkoniyati kengayadi. Tayyorgarlik ishlarini shu tarzda tashkil etish o'quvchilarning ta'lim olishga va mutolaaga bo'lgan qiziqishlari ortishiga ko'maklashadi.

O'qituvchining hikoyalashi. Maskur yondoshuvning ahamiyati asar muallifi haqida ma'lumot berishda bilinadi. Asar muallifi haqida so'zlab berilganda ulaning portretlari, bolalar uchun yozgan asarlari namoyish etilsa, o'quvchilarning muallif ijodiga nisbatan qiziqishlari ortadi. Muallif tomonidan o'qilgan asarlarni yoki ular haqida boshqa ijodkorlarning aytgan so'zlarining audio shaklini qo'yib eshittirish ham o'qituvchining hikoyasiga uyg'unlikda samaradorlikni oshiradi. Masalan, 5-sinfda A.Oripovning "O'zbekiston" she'rini o'tishda muallifning o'zi o'qigan videotasvirlardan foydalanish mumkin bo'ladi.

O'qituvchi materialni o'quvchilar yoshi va saviyasiga mos holda hikoyalasa o'quvchilarning badiiy asarga nisbatan ichki ehtiyoji oshib boradi.

² Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri / . – Toshkent: Sharq, 2017. – 40-b.

Asarni o‘qishga tayyorgarlik ishlari, shuningdek, mustaqil ishlar vositasida ham yo‘lga qo‘yiladi. Mustaqil izlanishlarga yo‘naltirishda o‘quvchilarga oldindan o‘rganiladigan mavzular bo‘yicha topshiriqlarning berib qo‘yilishidir.

Tayyorgarlik bosqichda asar mazmuni bilan tanishtirish ishlari amalga oshiriladi. Bu jarayonda asarning bir butun holda idrok etilishi, shuningdek, matnning hissiy ta‘sirini oshirish maqsadida uni ifodali o‘qish alohida o‘rin tutadi. Asar matni bilan tanishtirishning bir qancha usullari mavjud. Bular quyidagilardan iborat:

1. *Matnning o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qilishi.* Ayrim hollarda matn audioyozuv shaklida ham eshittiriladi. Matn mazmuni bilan tanishtirilgach, o‘quvchilardan asar yuzasidan dastlabki taassurotlari bilan o‘rtoqlashish so‘raladi. Masalan, “Hikoyaning qaysi lavhalari sizga ma‘qul bo‘ldi?”, “Qahramonlardan qaysi biri sizga ko‘proq yoqdi?”, “Asarni o‘qish vaqtida, ayniqsa, qaysi o‘rinlari sizni xursand qildi?” kabi savollar orqali asar ularga qanday ta‘sir qilganini bilib olish mumkin.

2. *Matnni nutqi ravon o‘quvchilarga o‘qitish.* Bunda o‘qituvchi oldindan o‘quvchiga qanday o‘qish zaruruligi yuzasidan tushuncha beradi, uning o‘qishni kuzatdi, xato va kamchiliklarini ko‘rsatib, to‘g‘rilashga yordam beradi. Tinish belgilari, urg‘u, pauza, intonatsiya, artikulatsiya, diksiya kabi nutq texnikasi haqidagi bilimlarni mustahkamlaydi. Shundan so‘ng sinf jamoasiga matnni o‘qib berish mumkin bo‘ladi.

3. *Og‘zaki qayta hikoyalab, so‘zlab berish.* Bunday faoliyat turi alohida tayyorgarlikni talab etadi, chunki asarni matnga yaqinlashtirib hikoyalashning o‘ziga xos talablari mavjud. Jumladan, asardagi badiiy tasvir vositalarini to‘liq saqlagan holda hikoyalash zarur, zero, badiiy asarni o‘qishga bo‘lgan qiziqish susayishi mumkin. D.Toshxo‘jayevaning fikriga ko‘ra, “Bola matn mazmunini so‘zlashga tayyor darajada nutqiy ko‘nikmaga ega bo‘lgandan keyin hikoya qilish bilan oldinma-ketin qayta hikoya qilishga o‘tiladi”³.

4. *Yoddan ifodali o‘qish.* She‘riy asarlar yod aytish orqali yetkazilsa, bu o‘quvchiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘zida ham yodlashga qiziqishni kuchaytiradi. Bunda, ayniqsa, o‘qituvchining namunasi alohida o‘rin tutadi.

5. *Asarning muhim dialogli o‘rinlarini yoki butun asarni sahnalashtirish orqali tanishtirish.* Bunday ish turi maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Ya‘ni personajlar nutqi ustida ishlashni, sahna ko‘rinishlari va qahramonlarning tashqi qiyofalari

³ Тошхўжаева Д.Р. Матн мазмунини ўз сўзи билан қайта ҳикоя қилишга ўргатишнинг методик асослари (таълим рус тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Пед. фан. номз. ...дис. – Т.: ЎзПФТИ, 2000. – 102- б.

ustidagi muayyan ishlarni uzviy holda olib borish orqali o'quvchi tasavvurida asarning yaxlit mazmunini ochishga yordam beradi.

6. *Asarning ma'lum bir qismini, ya'ni muammoliroq lavhasini o'qituvchining o'zi o'qib berishi.* Bunda o'quvchilarga asarning qolgan qismini o'zlari ichida mustaqil o'qishi vazifasi topshiriladi.

7. *Texnik vositalardan foydalanish.* Asarning muayyan qismiga tayyorlangan audio yoki videoyozuvlar shaklida matn mazmuni yetkaziladi.

8. *Musiqqa uyg'unligida o'rganish.* Bunday yondashuv asarning ta'sirchanligini ta'minlashga, o'quvchilarning estetik didlarini o'stirishga yordam beradi. Eng muhimi, ularni charchashdan, aqliy zo'riqishdan saqlaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki badiiy asar matni ustida ishlashning matn mazmuni bilan tanishtirish vazifasi kirish suhbatini tashkil etish, ifodali o'qishga o'rgatish og'zaki qayta hikoyalash, so'zlab berish, yoddan ifodali aytib berish, asarning muhim dialogli o'rinlarini yoki butun bir asarni sahnalashtirish, ma'lum bir qismini, xususan, muammoli o'rnini o'qituvchining o'zi o'qishi, musiqa bilan hamohanglikda o'qish kabi faoliyat turlari asarning janriy xususiyatini hisobga olgan holda olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Ahmedov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev 6-sinf. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri /.. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. – 102-b.
2. Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshibekov J. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri /.. – Toshkent: Sharq, 2017. – 40-b.
3. Тошхўжаева Д.Р. Матн мазмунини ўз сўзи билан қайта ҳикоя қилишга ўргатишнинг методик асослари (таълим рус тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Пед.фан.номз. ...дис. –Т.: ЎзПФТИ, 2000. – 102- б.